

XALQARO ISO STANDARTLARINI JORIY ETISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

Oriental universiteti

“Biznes va boshqaruv” kafedrası v.b.dotsenti, PhD

Karimova Maftuna Furqat qizi

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro ISO standartlarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Bugungi globalashuv sharoitida ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash, uning sifatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ISO standartlari ta'lim jarayonini boshqarish, sifat nazoratini kuchaytirish hamda tizimli yondashuvni shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Maqolada ISO standartlarining mazmun-mohiyati, xususan, sifat menejmenti tizimi doirasida ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, o'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholashda xalqaro standartlarning ahamiyati tahlil etilgan. Muallif tomonidan ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik metodlarning ISO standartlari bilan uyg'unligi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ISO standartlarini joriy etishning ijobiy natijalari keltiriladi hamda ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish masalalari muhokama qilinadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur standartlar ta'lim jarayonida shaffoflikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ISO standartlari, ta'lim sifati, sifat menejmenti, ta'lim tizimi, xalqaro standartlar, sifat nazorati, ta'lim boshqaruvi, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, pedagogik metodlar, ta'lim samaradorligi, akkreditatsiya, sertifikatlash, monitoring, baholash tizimi, ta'limda islohotlar.

Annotation: This article analyzes the theoretical and practical aspects of improving the quality of education by introducing international ISO standards into the educational system. In the context of today's globalization, ensuring the competitiveness of the educational system, bringing its quality to the level of international requirements, is one of the important tasks. In this context, ISO standards are considered an important tool in managing the educational process, strengthening quality control, and forming a systematic approach. The article covers the content and essence of ISO standards, in particular, the possibilities of improving the effectiveness of Management in educational institutions within the framework of the Quality Management System. The importance of international standards in the Planning, monitoring and evaluation of the educational process has also been analyzed. The author considers innovative approaches to improving the quality of education, the combination of digital technologies and modern pedagogical methods with ISO standards. In addition, the article presents the positive results of implementing ISO standards based on the experience of developed countries and discusses issues of adapting them to the national education system. Analyses show that these standards serve to ensure transparency in the educational process, efficient use of resources, and increased effectiveness.

Keywords: ISO standards, quality of Education, Quality Management, education system, International Standards, Quality Control, educational management, innovative approaches, digital technologies, pedagogical methods, educational effectiveness, accreditation, certification, monitoring, assessment system, education reform.

Аннотация: В статье анализируются теоретические и практические аспекты повышения качества образования путем внедрения международных стандартов ИСО в систему образования. В условиях современной глобализации обеспечение конкурентоспособности системы образования и доведение ее качества до уровня международных требований является одной из важнейших задач. В этом контексте стандарты ISO рассматриваются как важный инструмент управления образовательным процессом, усиления контроля качества и формирования системного подхода. В статье освещены содержание и сущность стандартов ИСО, в

частности возможности повышения эффективности управления в образовательных учреждениях в рамках системы менеджмента качества. Также анализируется значение международных стандартов в планировании, мониторинге и оценке образовательного процесса. Автор рассматривает инновационные подходы, сочетание цифровых технологий и современных педагогических методов с стандартами ИСО в повышении качества образования. Кроме того, в статье приводятся положительные результаты внедрения стандартов ИСО на основе опыта развитых стран и обсуждаются вопросы их адаптации к национальной системе образования. Анализ показывает, что данные стандарты способствуют обеспечению прозрачности в образовательном процессе, эффективному использованию ресурсов и повышению эффективности.

Ключевые слова: Стандарты ISO, качество образования, менеджмент качества, система образования, международные стандарты, контроль качества, управление образованием, инновационные подходы, цифровые технологии, педагогические методы, эффективность образования, аккредитация, сертификация, мониторинг, система оценки, реформы образования.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimi har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim sifati esa nafaqat bilim berish darajasi bilan, balki uning xalqaro standartlarga mosligi, zamonaviy talablar asosida tashkil etilganligi va natijadorligi bilan baholanadi. Shu sababli, ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uni xalqaro talablar darajasiga olib chiqish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini oshirishda xalqaro standartlardan, xususan, ISO standartlaridan samarali foydalanish muhim natijalarni bermoqda.

Xalqaro ISO standartlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish masalasi bugungi kunda jahon hamjamiyati va O'zbekiston ta'lim tizimi uchun eng dolzarb strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda bilim va intellektual salohiyat

davlatning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylangan bir paytda, ta'lim muassasalarining faoliyatini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish shunchaki tavsiya emas, balki davr talabidir. ISO 9001 va aynan ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan ISO 21001 standartlarining mazmun-mohiyati ta'lim jarayonlarini tizimli boshqarish, xizmat ko'rsatish sifatini doimiy ravishda yaxshilab borish va iste'molchi, ya'ni talaba hamda ish beruvchining ehtiyojlarini to'liq qondirishga qaratilgan. Ushbu standartlarning joriy etilishi ta'lim maskanlarida boshqaruv madaniyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi, chunki u har bir jarayonni aniq reglamentatsiya qilish va natijadorlikni doimiy monitoring qilib borishni taqozo etadi. Ta'lim sifatini oshirish deganda biz nafaqat darsliklar mazmuni yoki binolar holatini, balki butun bir ekotizimning samarali ishlashini tushunishimiz lozim, bu yerda o'qituvchi mahorati, ma'muriy boshqaruv shaffofligi va talabanning o'quv jarayonidagi faol ishtiroki o'zaro uyg'unlikda bo'ladi.

Global raqobat muhitida oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'z nufuzini saqlab qolish va bitiruvchilarining xalqaro mehnat bozorida munosib o'rin egallashini ta'minlash uchun sifat menejmenti tizimlarini tubdan isloh qilishi shart. ISO standartlari ta'lim muassasasiga o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini xolis baholash imkonini beradi, risklarni boshqarish strategiyasini shakllantiradi va resurslardan oqilona foydalanish yo'llarini ko'rsatib beradi. Mazkur maqolada ta'lim sifatini oshirishning istiqbollari tahlil qilinarkan, asosiy e'tibor standartlashtirish jarayonining psixologik va tashkiliy jihatlariga, tizimning moslanuvchanligiga va innovatsion yondashuvlarga qaratiladi. Bizga ma'lumki, ta'limda sifat bu nisbiy tushuncha emas, balki aniq ko'rsatkichlar va erishilgan natijalar majmuidir, shuning uchun ham xalqaro mezonlarni milliy ta'lim muhitiga integratsiya qilish jarayoni chuqur ilmiy va amaliy tahlilni talab etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini oshirish va ularni xalqaro reytinglarga kiritish maqsad qilib olingan bo'lib, bu yo'lda ISO standartlari o'ziga xos "yo'l xaritasi" vazifasini o'taydi. Standartlashtirish jarayoni ta'lim muassasasidagi barcha bo'g'inlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, byurokraliyani kamaytiradi va qarorlar qabul qilishda ma'lumotlarga asoslangan tahliliy yondashuvni joriy etadi. Bu esa o'z navbatida o'quv dasturlarining

zamonaviylikni ta'minlash, professor-o'qituvchilar tarkibining malakasini tizimli ravishda oshirish va talabalar uchun qulay, xavfsiz hamda motivatsiyaga boy o'quv muhitini yaratishga xizmat qiladi. Zero, ta'lim sifati – bu kelajak poydevori bo'lib, uning mustahkamligi bevosita qo'llanilayotgan boshqaruv uslublari va xalqaro tajribaning qay darajada muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro ISO standartlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimida eng dolzarb va ko'p qirrali ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan bir sharoitda ta'lim muassasalarining xalqaro standartlarga moslashuvi ularning raqobatbardoshligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish, zamonaviy menejment tizimlarini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashuv jarayonlarini chuqur yoritib beradi. Oliy ta'lim muassasalarida ISO standartlarini joriy etish masalasini o'rganishda milliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, chunki ular nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim yo'nalishlarni belgilab beradi.

Ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish masalasi D.Sultonova va A.Mamajonov tomonidan keng va tizimli ravishda tahlil qilingan. Ularning tadqiqotida oliy ta'lim tashkilotini xalqaro standartlar talablariga muvofiq rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan bo'lib, unda ISO standartlari asosida sifat menejment tizimini joriy etish asosiy strategik yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatilgan [1]. Mualliflar ta'lim sifatini oshirishda institutsional o'zgarishlar, boshqaruv tizimining takomillashuvi, shuningdek, xalqaro integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvini muhim omil sifatida qayd etadilar. Ushbu yondashuv O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ISO standartlarini joriy etish jarayonlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki u transformatsiya jarayonlarini kompleks tarzda yondashishni talab etadi va amaliy natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Sh.Javliyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillari keng yoritilgan. Uning ilmiy

qarashlariga ko‘ra, ta’lim sifatini oshirishda pedagogik jarayonlarning samaradorligi, o‘qituvchilarning kasbiy malakasi, zamonaviy o‘qitish metodlari va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim o‘rin egallaydi [2]. Shu bilan birga, boshqaruv tizimining to‘g‘ri tashkil etilishi ham sifatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar ISO standartlarining asosiy talablari bilan uyg‘un bo‘lib, ular ta’lim tashkilotlarida sifat menejment tizimini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bu yondashuv nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham ta’lim sifatini oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Xalqaro ta’lim standartlarining milliy ta’lim tizimiga ta’siri Sh.Yoqubov tomonidan chuqur tahlil qilingan. Muallif global konvensiyalar va xalqaro standartlarning O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga integratsiyasi natijasida ta’lim sifatining oshishi, akademik mobillikning kengayishi hamda xalqaro hamkorlikning rivojlanishini qayd etadi [3]. Ushbu jarayonlar ta’lim tizimining ochiqligini oshirib, talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ISO standartlarini joriy etish orqali ta’lim muassasalari xalqaro talablarga moslashadi va bu ularning global ta’lim makonida raqobatbardoshligini yanada oshiradi. Natijada, milliy ta’lim tizimi xalqaro standartlar bilan integratsiyalashadi va sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi.

Ta’lim menejmenti sohasida samarali boshqaruv tamoyillari D.Islamova va B.Madrahimov tomonidan o‘rganilgan. Ularning tadqiqotida ta’lim tashkilotlarida samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yishda rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya qilish va nazorat qilish kabi boshqaruv funksiyalarining muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan [4]. Ushbu tamoyillar ISO 9001 sifat menejment tizimining asosiy elementlari bilan bevosita uyg‘un bo‘lib, ta’lim sifatini tizimli ravishda oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, samarali boshqaruv tizimi ta’lim muassasalarida resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlab, strategik maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ISO standartlarini joriy etishda boshqaruv tizimining samaradorligi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

A.Avliyakov ta’lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur tadqiq qilgan. Muallif sifatni boshqarishda strategik rejalashtirish, monitoring, baholash va doimiy takomillashtirish

tamoyillarining muhimligini alohida ta'kidlaydi [5]. Ushbu tamoyillar ISO standartlarida belgilangan "uzluksiz takomillashtirish" prinsipi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ta'lim sifatini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, sifatni boshqarish jarayonlarining tizimli tashkil etilishi ta'lim muassasalarida barqaror rivojlanishni ta'minlaydi va ularning samaradorligini oshiradi. Bu esa ISO standartlarini samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan muhim metodologik yondashuvlardan biridir.

A.Kenjabayev va B.Karimova tomonidan yaratilgan "Pedagogik menejment asoslari" o'quv qo'llanmasida ta'lim jarayonini boshqarishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Mualliflar ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish hamda sifatni oshirishda inson kapitalining muhim rolini ta'kidlaydilar [6]. Ushbu qarashlar ISO standartlarini joriy etishda inson resurslarini boshqarish, ularning malakasini oshirish va motivatsiyasini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, pedagogik menejment tamoyillari ta'lim sifatini oshirishda muhim strategik asos bo'lib xizmat qiladi va xalqaro standartlarni samarali qo'llash imkonini beradi.

M.Kazaxbaeva ta'lim sifati menejmentining huquqiy-normativ asoslarini chuqur tahlil qilgan. Uning ilmiy ishida ta'lim tizimida sifatni boshqarishning huquqiy bazasi, milliy va xalqaro standartlar hamda me'yoriy hujjatlarning o'rni yoritilgan [7]. ISO standartlarini joriy etish aynan shu normativ-huquqiy asoslar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish tizimini qonuniy, tizimli va barqaror asosda tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, huquqiy bazaning mavjudligi ISO standartlarini samarali joriy etishda muhim omil bo'lib, ta'lim tizimida shaffoflik va javobgarlikni oshirishga yordam beradi.

B.Xudayberdiyev oliy ta'limda ta'lim sifatining nazariy va amaliy jihatlari keng qamrovli tarzda o'rgangan. Muallif ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy boshqaruv mexanizmlari, innovatsion texnologiyalar va xalqaro tajribaning muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi [8]. Ushbu qarashlar ISO standartlarini joriy etish orqali ta'lim tizimida sifatni oshirish, uning samaradorligini kuchaytirish va xalqaro maydonda

raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Natijada, oliy ta'lim muassasalari nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham yuqori natijalarga erishishi mumkin bo'ladi.

Ushbu dabiyyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro ISO standartlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish masalasi zamonaviy ilmiy qarashlar va amaliy yondashuvlar bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqotchilar ta'lim sifatini oshirishda boshqaruv tizimini takomillashtirish, normativ-huquqiy asoslarni rivojlantirish, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish hamda xalqaro tajribani keng joriy etish zarurligini ta'kidlaydilar. Shu bois, ISO standartlarini ta'lim tizimiga joriy etish nafaqat sifatni oshirish, balki O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash, ularning global ta'lim tizimiga integratsiyasini ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xalqaro ISO standartlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish istiqbollari nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Jumladan, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va mantiqiy yondashuvlar asosida mavjud ilmiy manbalar, xalqaro standartlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganildi. ISO standartlarining ta'lim tizimiga tatbiq etilish jarayoni ularning asosiy tamoyillari, xususan, sifatni boshqarish, jarayonlarga yo'naltirilganlik, mijoz (talaba) qoniqishi va doimiy takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida kontent-tahlil usuli orqali ilmiy maqolalar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalarda keltirilgan fikrlar tizimlashtirildi. Qiyosiy yondashuv yordamida milliy ta'lim tizimi va xalqaro ISO standartlari talablari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar aniqlandi. Bu esa ISO standartlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yordam berdi. Empirik ma'lumotlar asosida esa ta'lim muassasalarida sifatni boshqarish jarayonlarining amaldagi holati tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlashtirildi.

Tadqiqotda deduksiya va induksiya usullari ham keng qo'llanildi. Umumiy nazariy qarashlardan xususiy xulosalar chiqarish va aksincha, amaliy kuzatuvlardan umumiy

qonuniyatlarni aniqlash orqali ISO standartlarining ta'lim sifatiga ta'siri baholandi. Natijada, tadqiqot metodologiyasi xalqaro tajriba va milliy amaliyot uyg'unligida shakllantirildi hamda ta'lim sifatini oshirishda ISO standartlarining o'rni va ahamiyatini ilmiy asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro ISO standartlarini ta'lim tizimiga joriy etish bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu standartlar ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, sifatni nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish hamda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. ISO standartlari, ayniqsa, ISO 21001 kabi standartlar ta'lim tashkilotlarining faoliyatini o'quvchiga yo'naltirish, manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini hisobga olish hamda uzluksiz takomillashtirishni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarning joriy etilishi ta'lim muassasalarining global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishga ham yordam beradi.

Biroq, ushbu jarayon murakkab bo'lib, u nafaqat imkoniyatlarni, balki ayrim cheklov va muammolarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, standartlarni joriy etish uchun moliyaviy resurslar, malakali kadrlar va zamonaviy infratuzilma talab etiladi. Shu sababli, ISO standartlarini ta'lim tizimiga tatbiq etishda ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni SWOT tahlil orqali ko'raylik. SWOT tahlil aynan shu maqsadda qo'llanilib, kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar hamda tahdidlarni aniqlash orqali samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi (1-jadval):

1-jadval

Xalqaro ISO standartlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga doir SWOT¹

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Ta'lim sifatini xalqaro darajaga moslashtiradi	Joriy etish xarajatlarining yuqoriligi
Boshqaruv tizimini tartibga soladi	Kadrlarning yetarli malakaga ega emasligi
Sifat nazorati va monitoring kuchayadi	Hujjatlashtirish jarayonining murakkabligi
Talabalar va ish beruvchilar ishonchi oshadi	O'zgarishlarga qarshilik mavjudligi
Xalqaro hamkorlik imkoniyatlari kengayadi	Standartlarni noto'g'ri tushunish xavfi
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash	Moliyaviy resurslarning yetishmasligi
Xorijiy talabalarni jalb qilish	Standartlarni formal joriy etish xavfi
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish	Ichki tizimlarning moslashuvchan emasligi
Mehnat bozoriga mos mutaxassislar tayyorlash	Raqobatchi ta'lim muassasalari ko'payishi
Grant va investitsiyalarni jalb qilish	Tashqi talablarning tez o'zgarishi

Ushbu SWOT tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ISO standartlarini ta'lim tizimiga joriy etish sezilarli ijobiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Eng avvalo, kuchli tomonlar sifatida ta'lim sifatining oshishi, boshqaruv tizimining takomillashuvi va xalqaro miqyosda tan olinishi muhim ahamiyatga ega. Bu esa ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirib, ularni global ta'lim bozorida faol ishtirok etishga undaydi. Shu bilan birga, imkoniyatlar qatorida xorijiy talabalarni jalb qilish, investitsiyalarni kengaytirish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish kabi omillar alohida e'tiborga loyiq.

Biroq, zaif tomonlar va tahdidlar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Xususan, moliyaviy xarajatlarning yuqoriligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi va tizimdagi qarshiliklar jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, standartlarni faqat rasmiy

jihatdan joriy etish, ya'ni ularning mazmunan emas, balki shaklan qo'llanilishi kutilgan natijalarni bermasligi mumkin. Shu sababli, ISO standartlarini samarali joriy etish uchun kompleks yondashuv, puxta rejalashtirish va doimiy monitoring talab etiladi.

Xalqaro ISO standartlari orasida ISO 21001 standarti ta'lim tashkilotlari uchun maxsus ishlab chiqilgan boshqaruv tizimi bo'lib, u ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish, manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirish va uzluksiz takomillashtirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu standart ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish orqali o'quv jarayonini tizimlashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va natijadorlikni kuchaytirishga imkon beradi.

Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunda nafaqat milliy, balki global darajada muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim muassasalarining samaradorligi, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan xalqaro standartlarni joriy etish darajasiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, ISO 21001:2018 standarti ta'lim tashkilotlari uchun maxsus ishlab chiqilgan boshqaruv tizimi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu standart ta'lim muassasalariga o'z faoliyatini tizimli ravishda tashkil etish, o'quv jarayonlarini takomillashtirish va manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini chuqurroq hisobga olish imkonini beradi.

ISO 21001 nafaqat texnik talablar majmui, balki ta'lim jarayonini boshqarishning zamonaviy falsafasini ham o'zida mujassam etadi. Unda asosiy e'tibor o'quvchiga yo'naltirilganlik, inklyuzivlik, shaffoflik va doimiy takomillashtirish tamoyillariga qaratilgan. Ushbu yondashuv ta'lim muassasalarida sifatli ta'limni ta'minlash, o'quvchilarning qoniqishini oshirish hamda ularning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ISO 21001 standarti ta'lim tashkilotlariga resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va xalqaro miqyosda tan olinadigan natijalarga erishish imkonini beradi. Quyidagi jadvalda ISO 21001:2018 standartining mazmuni, ahamiyati va uni joriy etish natijalari yoritib beramiz (2-jadval):

2-jadval

ISO 21001:2018 xalqaro standarti asosida ta'lim sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari va kutilayotgan natijalari²

№	Yo'nalish	Vazifalari va natijalari
1	ISO 21001:2018 mohiyati	Ta'lim tashkilotlari menejment tizimi uchun ishlab chiqilgan xalqaro standart bo'lib, u ta'lim jarayonlarini samarali boshqarish va sifatni oshirishga qaratilgan moslashuvchan tizimni ifodalaydi.
2	Asosiy g'oya	O'quvchini markazga qo'yish, barcha manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini hisobga olish va ta'lim jarayonlarini sifatli tashkil etishdan iborat.
3	Ta'lim sifatini oshirishdagi roli	O'quv dasturlarini takomillashtirish, o'qitish metodlarini rivojlantirish, natijalarni baholashni shaffof qilish orqali sifatni oshiradi.
4	Afzalliklari	Ta'lim sifati oshadi, talabalar qoniqishi ortadi, boshqaruv tizimi takomillashadi, resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi.
5	Inklyuzivlik va tenglik	Barcha o'quvchilar, jumladan maxsus ehtiyojga ega shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.
6	Xalqaro tan olinishi	Ta'lim muassasasining nufuzini oshiradi, xalqaro hamkorlik va akademik mobillikni kengaytiradi.
7	Qo'llanish sohasi	Bog'chalar, maktablar, kollejlar, universitetlar, trening markazlari va korporativ o'quv tizimlarida qo'llaniladi.
8	Joriy etish bosqichlari	Tahlil, tizimni ishlab chiqish, joriy etish, ichki audit, sertifikatlash auditidan o'tish bosqichlarini o'z ichiga oladi.
9	Yakuniy natijalar	Ta'lim sifati oshadi, boshqaruv samaradorligi ortadi, bitiruvchilarning raqobatbardoshligi kuchayadi.

Ushbu jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ISO 21001:2018 standarti ta'lim tizimida sifatni boshqarishning tizimli va o'zaro bog'liq modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Avvalo, ushbu standartning asosiy g'oyasi o'quvchiga yo'naltirilganlik bo'lib, u

² Muallif tomonidan tayyorlandi

zamonaviy pedagogik qarashlar, xususan, bilimni mustaqil egallash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish tamoyillariga to'liq mos keladi. Bu esa ta'lim jarayonida faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ISO 21001 standartining yana bir muhim jihati bu – jarayonlarga asoslangan boshqaruv yondashuvidir. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida har bir bosqichni aniq belgilash va ularni muntazam nazorat qilish orqali sifat darajasini sezilarli oshirish mumkin. Ushbu standart aynan shu yondashuvni qo'llagan holda, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qitish usullarini tanlash, baholash tizimini tashkil etish va natijalarni tahlil qilish jarayonlarini yagona tizimga keltiradi. Natijada ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligi ortadi va faoliyat natijalari oldindan rejalashtirilgan darajada shakllanadi.

Shuningdek, ISO 21001 standarti doimiy takomillashtirish tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyil “rejalashtirish – amalga oshirish – tekshirish – takomillashtirish” bosqichlari orqali amalga oshiriladi va samarali boshqaruvning muhim usuli sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv ta'lim muassasalariga o'z faoliyatini muntazam baholab borish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Natijada ta'lim sifati izchil ravishda oshib boradi va barqaror rivojlanish ta'minlanadi.

Bundan tashqari, standartning barcha ishtirokchilar ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilganligi ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, teng imkoniyatlar yaratilgan ta'lim muhitida o'quvchilarning bilim olish darajasi va ijtimoiy moslashuvi yuqori bo'ladi. ISO 21001 ushbu yondashuvni tizimli tarzda joriy etish orqali ta'lim tizimining ijtimoiy samaradorligini ham oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro ISO standartlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ISO standartlarining ta'lim jarayonlarini boshqarishdagi o'rni, ularning sifatni ta'minlashga ta'siri hamda xalqaro tajribalar asosida ta'lim tizimini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, ISO standartlari ta'lim

muassasalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, jarayonlarni tizimlashtirish va doimiy sifatni yaxshilash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu standartlar ta'lim sifatining xalqaro darajada tan olinishini ta'minlab, global ta'lim makonida raqobatbardoshlikni oshiradi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan manbalar va tahlil natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surdik:

1. Yagona sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish kerak. Bu amalga oshirilganda ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari tartibga tushadi, faoliyatda shaffoflik ortadi va qarorlar qabul qilish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Natijada ta'lim sifatining barqarorligi ta'minlanadi;

2. Kadrlar salohiyatini oshirish kerak. Ushbu taklif bajarilganda pedagog va boshqaruv xodimlarining ISO standartlari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshadi, natijada sifatli ta'lim berish darajasi yuqorilaydi va xatoliklar kamayadi;

3. Sifat monitoring tizimini takomillashtirish zarur. Bu amalga oshirilsa, ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlari doimiy nazorat qilinadi, muammolar tez aniqlanadi va tezkor bartaraf etiladi. Natijada ta'lim jarayoni samaradorligi oshadi;

4. Xalqaro tajribalarni keng joriy etish kerak. Bu orqali ta'lim tizimi ilg'or xorijiy standartlarga moslashadi, xalqaro hamkorlik kengayadi va ta'lim muassasalarining global reytinglardagi o'rni yaxshilanadi.

5. Raqamli texnologiyalardan foydalanish kerak. Bu amalga oshirilganda ta'lim sifatini baholash jarayoni tezlashadi, inson omili kamayadi va natijalar aniqroq bo'ladi. Shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi.

Fikrimizning yakuni sifatida aytishimiz mumkinki, xalqaro ISO standartlarini ta'lim tizimiga joriy etish ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini yaxshilash va xalqaro talablar darajasiga chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilsa, ta'lim muassasalari faoliyati yanada takomillashadi va mamlakat ta'lim tizimining global raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi. Shu sababli, ISO standartlarini chuqur o'rganish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish va doimiy takomillashtirib borish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sultonova D., Mamajonov A. Oliy ta’lim tashkilotini xalqaro standartlar talablariga muvofiq transformatsiya modeli ishlab chiqish // “SHOKH LIBRARY” ilmiy jurnali, 2026-yil, 1-jild, 1-son.
2. Javliyeva Sh. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” jurnali, 2023-yil, № 12-son.
3. Yoqubov Sh. Global konvensiya O‘zbekiston oliy ta’limiga nima beradi? // “O‘zbekistonda oliy ta’lim” jurnali, 2025-yil, № 4-son.
4. Islamova D., Madrahimov B.. Ta’lim menejmentida samarali boshqaruv tamoyillari: zamonaviy yondashuvlar va amaliyot // “Ta’lim menejmenti va boshqaruv” jurnali, 2025-yil, 3-son.
5. Avliyakov A. Ta’lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari // “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali, 2026-yil, mart, 3(2)-son.
6. Kenjaboyev A.E., Karimova B.X. Pedagogik menejment asoslari: O‘quv qo‘llanma. – T.: “IRFON-PRINT”, 2023. – 204 b.
7. Kazaxbaeva, M. . (2025). Ta’lim sifati menejmentining huquqiy-normativ asoslari. Yangi O‘zbekiston Akademik Tadqiqotlari Jurnali, 2(3. part 2), 73–75.
8. Xudayberdiyev B. Oliy ta’limda ta’lim sifati // “Экономика и социум” jurnali, 2022-yil, № 6(97)-1.